

## “Zo'rlikning so'nggi — xo'rlik.”

Joriy yilning 29 oktyabr kuni YRB, GTS fakulteti 2-4-kurs talaba qizlari bilan institut psixologi M.K. Muxamedova, YRB fakulteti yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi N. Rahmonberdiyeva, 4-TTJ tarbiyachi pedagogi N.Isoqulova va Lashkarbegi MFY oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari Z.M. Rasuliy, H. Olimjon MFY oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari M. Shirmuxamedovalar birgalikda “Biz zo'ravonlikka qarshimiz!!!” mavzuida davra suhbatini o'tkazishdi. Tadbir Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida sodir bo'lgan noxush hodisa boshqa OTMda yuz bermasligini oldini olish maqsadida o'tkazildi.



Tadbir davomida talaba qizlarga 2.09.2019 yilda «Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida»gi O'RQ-561-son Qonuni haqida eslatib o'tildi. Tadbir davomida yig'ilish ishtirokchilaridan “Zo'ravonlikni aniqlash” mavzuida so'rovnomani olindi. Tadbir davomida Lashkarbegi MFY oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari Z.M. Rasuliy, H. Olimjon MFY oila, xotin-qizlar va ijtimoiy ma'naviy masalalari bo'yicha rais o'rinbosari M. Shirmuxamedovalar yig'ilish ishtirokchilariga “Inson huquqlari” haqida ma'lumotlar berib o'tishdi. Tadbir davomida MFY xodimlari bilan hamkorlikda tadbirlar tashkil etishga kelishib olindi. Va davra suhbatini qizg'in tarzda yakunlandi.

**Institut psixologi M.K. Muxamedova ma'lumoti.**